

## 49. Uch xonali sonlarni taqqoslash

Yondosh mavzu:  
jurnalistlar

Kamayish tartibida  
o'sish tartibda



Qanday qilib bu mamlakat  
bo'ylab barcha yo'llarni bir marta  
bosib o'tish mumkin?



1. Jurnalist yil davomida gazetaga 120 ta, jurnalga esa 52 ta maqola yozgan. Uning qaysi nashrda maqolalari ko'proq?

2. Bir nechta jurnalistlar o'z maqolalarini gazetaga yuborishdi. Maqolalarda turli miqdorda so'zlar bor: 376, 392, 459, 220, 735, 448. Bu sonlarni kamayish tartibida aytинг.

3. Sonlarni o'sish tartibida yozing.

987    108    56    908    307    73    4    41    441

4. Maqoladan barcha uchragan sonlarni ko'chirib yozing va ularni kamayish tartibida joylashtiring:

*Ajoyib qurilish – Xeops piramidasi. O'ttiz asrdan ko'proq vaqt davomida u yer yuzidagi eng baland bino edi. U qirq besh asr davomida turibdi. Dastlab piramidaning balandligi bir yuz qirq yetti metrga teng edi, ammo cho'kish tufayli uning balandligi bir yuz o'ttiz sakkiz metrgacha kamaydi. U bir-birining ustiga qo'yilgan ikki yuz o'nlik qatlamlili tosh bloklardan iborat. Bu buyuk piramida "Dunyoning yetti mo'jizasi"dan biri ekanligi ajablanarli emas.*

5. Gazetada 37 nafar jurnalist, jurnalistlardan 19 nafar kam fotograf va 6 nafar ko'p muharrir ishlaydi. Gazetada jami qancha odam ishlaydi?

## 49. Uch xonali sonlarni taqqoslash



6. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozib taqqoslang.

Namuna:  $700 + 80 + 9$  и  $800 + 60 + 7$

$$789 < 867$$

$400 + 50 + 7$ <input type="checkbox"/>	$400 + 70 + 5$ <input type="checkbox"/>	$800 + 60$ <input type="checkbox"/>	$800 + 6$ <input type="checkbox"/>
$100 + 30 + 2$ <input type="checkbox"/>	$200 + 30 + 1$ <input type="checkbox"/>	$500 + 9$ <input type="checkbox"/>	$400 + 90$ <input type="checkbox"/>





7. Ko'pincha jurnalistlar taniqli odamlar bilan muloqot qilishadi, ularga qiziqarli savollar berishadi va javob olishadi. Ushbu suhbat nima deb atalishini bilib olish uchun misollarni hisoblang va javoblarni o'sish tartibida joylashtiring.

V	92 – 18	I	83 – 65	N	56 – 27	T	77 – 29
E	16 + 38	U	67 + 15	R	47 + 23	Y	34 + 45



8. Jurnalist jurnal rasmlarining har birida rassom xato qilganini payqadi. Ularni topa olasizmi?



9. Oyning birinchi haftasida jurnalistlar 34 ta, ikkinchi haftasida esa 47 ta maqola tayyorladilar. Gazetaning birinchi soniga 22 ta maqola, ikkinchi soniga 18 ta maqola kiritildi. Gazetada yana qancha maqola zahirada bor?



10. Sonlarni qo'yib chiqing:

- a) o'sish tartibida – 340, 207, 65, 9, 81, 810, 808, 921;
- b) kamayish tartibida – 70, 104, 780, 406, 6, 604, 64, 302.